

## **AQLI ZAIF BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHIDAGI NUQSONLARNI KORREKSIYALASHNING SAMARALI TEXNOLOGIYALARI.**

Namangan davlat pedagogika instituti  
maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi

1-kurs magistratura talabasi

**Toshboyeva Ziyoda Maxmudjon qizi**

+998505503402

**Annotasiya:** Mazkur maqolada aqli zaif bolalarda uchraydigan nutq rivojlanishidagi nuqsonlar, ularning sabablari va ushbu nuqsonlarni bartaraf etishda qo'llaniladigan zamonaviy korreksion-pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. Shuningdek, nutqni rivojlantirishda interaktiv usullar, logopedik mashqlar va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** aqli zaiflik, nutq nuqsonlari, korreksiya, logopediya, pedagogik texnologiyalar, rivojlantiruvchi mashqlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются нарушения речевого развития, встречающиеся у детей с интеллектуальной недостаточностью, их причины, а также современные коррекционно-педагогические технологии, применяемые для устранения данных нарушений. Кроме того, проанализировано значение интерактивных методов, логопедических упражнений и инновационных технологий в развитии речи.

**Ключевые слова:** интеллектуальная недостаточность, речевые нарушения, коррекция, логопедия, педагогические технологии, развивающие упражнения.

**Abstract:** This article examines speech development disorders observed in children with intellectual disabilities, their causes, and modern corrective and pedagogical technologies used to address these disorders. It also analyzes the importance of interactive methods, speech therapy exercises, and innovative technologies in speech development.

**Keywords:** intellectual disability, speech disorders, correction, speech therapy, pedagogical technologies, developmental exercises.

Bugungi kunda maxsus ta'lim tizimida aqli zaif bolalar bilan ishlash muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Aqli zaiflik bu- bosh miyaning organik jarohatlanishi natijasida bilish faoliyatining total pasayishi yoki butkul yo'qolishi. Aqliy jihatdan nosog'lom bo'lgan bolalarda bilish jarayonlari, tafakkur, xotira, diqqat va nutq rivoji me'yoridan orqada qoladi. Bunday bolalarda tafakkur tarqoq, xotira sust, diqqat esa bo'linuvchan va ayniqsa, nutqning yetarlicha rivojlanmaganlik holatlari kuzatiladi. Bu esa bolaning ta'lim olishiga, atrof-muhit bilan muloqotiga va ijtimoiy moslashuviga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli aqli zaif bolalarda nutq rivojlanishidagi nuqsonlarni erta aniqlash va ularni samarali korreksiyalash dolzarb masala hisoblanadi. Erta tashxis nafaqat bunday bolalarga balki barcha yordamga ehtiyojmand bolalar uchun zarurdir. Shunday ekan, aqli zaif bolalarda nutqning o'ziga xosligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ya'nikim bunday bolalarda nutqning tushunarliklik va aniqlik ko'rsatkichi birmuncha pasayadi. Bundan tashqari aqli zaif bolalarning nutqida lug'at boyligining kamligi, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish holati, grammatik tuzilmalarning shakllanmaganligi, gap tuzish va fikrni izchil bayon etishdagi qiyinchiliklar, nutqning sekin rivojlanishi kabi bir qator kamchilik kuzatiladi. Bu nuqsonlar bolaning umumiy va aqliy rivojlanishidagi cheklanishlar bilan bog'liq bo'lib, mustaqil fikrlash va muloqot qilish jarayonlarini sekinlashtiradi. Lekin har qanday nuqsonni mutaxassislar hamkorligida to'g'ri va izchil ish olib borish orqali korreksiya qilish mumkin. Bu esa o'z navbatida kuchli mutaxassisni talab qiladi. Mutaxassis esa nafaqat nutqini balki boladagi barcha kamchiliklarni tuzatish ishlarini olib boradi.

Nutqni korreksiyalashni biz bola nutqida fonetik-fonematik rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish, grammatik tuzilmani shakllantirish, bog'lanishli nutqni rivojlantirish, muloqot madaniyatini shakllantirish kabi bir qator korreksion rejalar asosida olib boramiz. qli zaif bolalarning yozma nutqlari murakkab ruhiy faoliyatdir. Og'zaki nutqdan yozma nutqga o'tish — bolalar nutqining rivojlanishida yangi davrdir. Aqli zaif bolalarning

so'zlarini tovush tomonidan tahlil qila olishlari grammatik qonun-qoidalarni muvaffaqiyatli egallashlarida asosiy vositadir. N.S. Rojdestvenskiyning ta'kidlashicha, «So'zdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni o'qish va yozishga, keyinchalik to'g'ri yozishga o'rgatish mumkin emas». Aqli zaif bolalarda o'z kuchiga ishonch hosil qilmasdan turib, yordamchi maktablar o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erisha olmaydi. Buning uchun aqli zaif bola bilan uning kuchi yetadigan elementar ko'nikma va malakalardan boshlash kerak. Bolalarning nutq faoliyatlari ham bundan mustasno emas. Yordamchi maktab o'quvchilarining ayrimlarida uchrab turadigan «Oynali» yozuv ham qator qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladi. Qator aqli zaif bolalar yozuv malakalarini to'g'ri egallay olmaydilar. Bundan tashqari aqli zaif bolalar talaffuzidagi nuqsonlar — nutqning to'liq rivojlanmaganligining ko'rinishlaridan biridir. Me'yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatiladigan talaffuz nuqsonlaridan farqli, aqli zaif bolalarda uchraydigan talaffuz kamchiliklari esa ancha murakkab, shuning uchun ham bartaraf etish qiyin. Ularning asosida bola tomonidan ona tilining tovush tomonini o'zlashtirish sekinlashganligi yotadi. Aqli zaif bolaga eshutilishi bo'yicha o'xshash fonemalarni ajratish va so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklardan namoyon bo'ladigan fonetiko-fonematik buzilishlar xosdir. Bular talaffuz nuqsonlarini keltirib chiqaradi.

Men hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktabida inklyuziv ta'lim pedagogi lavozimida faoliyat yuritaman va menda bitta aqliy zaiflikning yengil darajasi F70 tashxisli o'quvchi bor. Bu o'quvchida aqli zaiflik bilan kompleks ravishda nutq nuqsoni ham mavjud. Men mutaxassis sifatida bu boladagi nutq nuqsonlarini ham bir nechta nutqni rivojlantiruvchi metodikalar asosida korreksiya qilishga harakat qilyapman. O'quvchining individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holatda unga alohida nutqiy nuqsonlari korreksiyasi uchun reja tuzib olganman. Har doim mashg'ulotga kirganda u bilan qiladigan birinchi ishimiz nafas mashqlarini bajarish bo'ladi. Boisi nafas mashqlari boladagi nutqiy malakalarini rivojlantiradi va normallashtiradi. Qolaversa, o'quvchimizdagi tushunarsiz nutqni ham korreksiya qilishga yordam beradi. O'quvchim bilan bundan tashqari turli xil didaktik o'yinlar tashkil etamiz. Bu o'yinlarning asosiy maqsadi ham boladagi aqliy qoloqlikni va nuqsonlarni bartaraf etishdir. O'quvchimning yoshi kattaligi uchun ya'ni 9-

sinfligi uchun u bilan o'yinlar o'ynash biroz mushkul. Unga o'yin orqali emas o'zi qiziqqan soha orqali korreksion mashg'ulot olib boraman. Ya'ni o'quvchim Mushtariybonu munchoqlardan ajoyib dekaratsiyalar yasay oladi. Menga munchoqdan yasalgan sumka yasab sovg'a qilgan. Men esa unga o'zi yasagan buyumlarning rangini, sifatlarini va uni nima sababdan ishlatishimiz kerakligi so'rash oqibatida undagi nutq boyliklarini kun sayin to'ldirib bormoqdaman. Bundan tashqari u bu narsalarini uyida yozib kelib menga o'qib beradi va undagi yozma hamda og'zaki nutqini rivojlantiradi va o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har bir bola bir hikoya. Uning har bir uchun tuzilgan hikoyagina uning unib o'sishi uchun yordam beradi. Zero, insonga berilgan mehr, muruvvat, ko'mak undagi har qanday dardga davo bo'la oladi. Alohida yordamga muhtoj bolalar ham shundaydir. Ularga qancha mehr bersak, qancha e'tibor bersak ular shuncha erta tuzaladi va bu kelakakda ularning yetuk inson bo'lishlari uchun ko'mak bo'ladi.

Bunday nuqsonli bolalar hayotdan, jamiyatdan ajralib qolishlariga beparvo qarab bo'lmaydi. Buning uchun pedagoglar, psixologlar va ota-onalar birga hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Bu nuqsonlarni qancha erta aniqlansa, ularga to'g'ri yondashilsa, ularni bartaraf etish shuncha samarali bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning 20-moddasi inklyuziv ta'limga bag'ishlangan bo'lib, ularning o'z tengqurlari bilan birga tahsil olishlari, chetda qolib ketmasliklari inobatga olingan. Bunday nuqsonli bolalar har doim e'tibor, mehrga muhtoj bo'lishadi. Ularni doimo qo'llab-quvvatlash hamda inklyuziv ta'limni amalga oshirish orqali ularni jamiyatda ijtimoiylashuviga yordamlashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Mamedov K.Q., Shoumarov G 'B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. — «O'qituvchi», T-1994.

2. Mamedov K.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida). Doktorlik dissertatsiya, 1994.
3. Mamedov K.Q., Shoumarov G'.B., Podobed V.L. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. — T., 1992.
4. Mamedov K.Q., Soatov M.1., Po'latova P.M. Oligofrenopedagogika asoslari: Pedagogika institutlari defektologiya fak. talabalari uchun o'quv qo'llanma. — T., O'qituvchi, 1994.
5. Mavlyanova R., Turayeva O., Xolikberdiyev K. Pedagogika. O'qituvchi, T-2001.
6. L.R. Mo'minova. Logopediya. — T., 2006.
7. L.R.Mo'minova, M.Y.Ayupova. Logopediya. — T., 1993.
8. L.R. Mo'minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. — T., 2012.
9. Z. Nishanova, G.Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi, 2005
10. Shoumarov G'.B. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. — O'qituvchi, T-1993
11. Shoumarov G'.B., Mamedov K.Q. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diagnostikasi. — T., 1987